

## UILYAM SHEKSPIRNING “ROMEO VA JULYETTA” TRAGEDIYASIDA QAHRAMONLAR TALQINI

Odiljonova Munisaxon

Farg‘ona davlat universiteti filologiya fakulteti

o‘zbek tili yo‘nalishi 3-kurs talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Uilyam Shekspirning “Romeo va Julyetta” tragediyasidagi qahramonlar xarakterlari, ular o‘rtasidagi o‘zaro konfliktlar, asardagi bir-biridan ajoyib o‘xshatishlar, voqealar rivojining tub burilishidagi o‘zgarishlar o‘rin olgan

**Kalit so‘zlar:** Dramaturgiya, tragediya, tasvir, holat, konflikt, o‘xshashlik, qahramon, Montekki, Kapuletti, Romeo, Julyetta, Rohib, muhabbat.

### KIRISH

Tragediya dramatik turning asosiy janrlaridan biri hisoblanadi, u qahramonlar o‘rtasidagi kuchli ziddiyatlar asosiga quriladi, qahramonlar taqdiri fojia bilan yakun topadi, ular o‘rtasidagi konflikt (ziddiyat) shiddatli va keskin tus oladi. Nafaqat tragediya, balki, dramatik turning barcha janrlariham shunday yo‘sinda yoziladi. V.E.Xalizev o‘z asarida: “..Demak, dramatik syujetning ziddiyatlari asosan uyg‘un va mukammal bo‘lgan dunyo tartibining buzilishini anglatadi. Yoki dunyo tartibining o‘ziga xos xususiyati bolib, uning nomukammalligi va uyg‘unligidan dalolat beradi”, – deb yozadi.

### ASOSIY QISM

Bizga ayonki, jahon adabiyotida dramaturgiya sohasi antik davrdan boshlab rivojlanib kelgan. Jahon san‘ati tarixini esa Shekspirsiz tasavvur qilish qiyin. Uning teatr san‘ati rivojiga bo‘lgan ta‘siri beqiyos. Uning tragediyalari jahon adabiyoti durdonalari safidan o‘rin olgan. Shekspir asarlari bugungi kunda ham dunyo sahnasidan tushmay kelyapti. Adibning ana shunday olamga mashhur asaridan biri “Romeo va Julyetta” hisoblanadi. “Romeo va Julyetta” – oilalar o‘rtasidagi shafqatsiz dushmanlik yosh sevishganlarni halok etishi haqidagi go‘zal va mungli afsonadir. Asarda ikki aka uka

Kapuletti va Montakkilarning dushmanligi sababali ularning bir-biriga bo‘lgan nafrati nihoyatda kuchayib ketadi. Ularning farzandlari Romeo hamda Julyettaning qalbiga tushgan muhabbat urug‘i esa ana shu dushman oilani birlashtirish uchun vosita edi. Ana shu muhabbat urug‘ini nifoq urug‘lari ustiga ekilganda asar bunday fojia bilan tugamagan bo‘lardi. Asarning oxirida ikki dushman aka-uka birlashib ahil bo‘lishdi, lekin ikki begunoh farzandning, balki, Parisning vafoti badaliga. Asarda aka-uka konflikti ularning xizmatkorlari xarakteriga ham ko‘chganni yaqqol ko‘rishimiz mumkin. asarning boshidan ham jangga sababchi bo‘lganlar ayni shulardir. Tibalt obrazi orqali ham ijodkor or-nomus, g‘urur kabi tushunchalarni yoritib bergan. Asarni o‘qish davomida Romeo haqida o‘quvchi ongida salbiy obraz ham gavdalanishi mumkin, chunki u Julyettani ko‘rishi, u bilan raqs tushishi va uni sevib qolishidan avval Rozalina ismli qizga oshiqlik keltirib o‘tiladi. Romeo tilidan aytilgan: “Muhabbat bu – faryodlardan yoyilgan tutun” ifodasida ham Rozalinaga bo‘lgan muhabbatini ko‘rish mumkin. 14 yoshga hali to‘lmagan Julyettaning muhabbati esa ilk va samimiy edi. Ana shunday qarama- qarshi jihatlari bilan ham asar yoqimli. Shuningdek, asar konfliktlarga boy boyligi, garchi fojia bilan tugasa-da, muhabbat haqidagi eng go‘zal qo‘shiq sifatida e’tirof eta olamiz.:

Sevgim meni boshlab keldi yor dargohiga,

Sevgi menga kengash berdi men esa ko'zlar

Men dengizchi sayyoh emas, ammo ishonki,

Agar olis dengizlardan nari bo'lsang ham

Shunday qimmat gavhar uchun suzib borardim.

Bosh qahramonlarga ishq sof, samimiy, g‘uborlardan holi va ayni paytda fidokorona hamdir. yuqorida ta`kidlaganimizdek muhabbat haqidagi eng go‘zal qo‘shiq deb e`tirof etish mumkin. Va ayni chog‘da ham yana bir narsani inobatga olish kerakki, ishq-muhabbat, bir mashuq(a)ning visoli deb ota-ona rizoligini ham unutmaslik kerak. Xalqimizda bir naql bor: “Ota rozi - Xudo rozi”. Tragediyadagi Rohib obrazini ham to‘liq yoqlamaslik kerak. Ota-ona rizoligini olmay turib nikoh o‘qish nojoiz, menimcha.

Qiziq tomoni, Shekspir bu asarni yozganida, qahramonlar atigi 4 kun bir-birini uchrashadi, lekin ularning muhabbati abadiy timsolga aylangan.

## **XULOSA**

Xulosa qilib aytganda asar o'quvchiga o'qish davomidagi his-hayajonni bera olsa asar o'qishli hisoblanadi. Qahramonlar ziddiyati real hayotga mos va munosib bo'lsa, dramatik asar (har qanday asar) o'z maqsadiga yetgan bo'ladi. Shuning uchun dramatik to'qnashuv dramaturgiyaning asosi ekanligini ta'kidlaydilar.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Uilyam Shekspirning "Romeo va Julyetta" asari haqida maqola <https://zenodo.org/records/6415876>
2. Shekspir. "Romeo va Julyetta"-Toshkent: G'afur Gulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1981.
3. Muzaffarov Javlon Qodirjonovich "Uilyam Shekspir" maqola <https://interonconf.org/index.php/idre/article/download/6974/6015/5871>